

## O'zbekiston-Qirg'iziston siyosiy maslahatlashuvlariga doir

---



2017-yilning 13-14-mart kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston-Qirg'iziston vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlarining navbatdagi raundi bo'lib o'tdi, deya xabar qildi O'zbekiston TIV matbuot xizmati.

Qirg'iziston Respublikasi delegatsiyasiga Tashqi ishlar vaziri birinchi o'rinosasi Dinara Kamolova boshchilik qildi.

Uchrashuvda ikki tomon kun tartibining siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsion, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi dolzarb masalalari hamda xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Qayd etilganidek, 2016-yilning 24-dekabr kuni Samarcand shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuv, so'ngra O'zbekiston va Qirg'izistonning chegaradosh viloyatlari rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirokidagi ikki tomon hukumat delegatsiyalarining o'zaro tashriflari, manfaatdor biznes doiralar o'rtasidagi aloqalar, davlatlararo chegaralarni huquqiy rasmiylashtirish borasida davom etayotgan muzokaralar serqirra O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlarining yangi dinamikasini namoyon etadi.

O'zaro manfaatli bo'lgan barcha sohalarda aloqalanir rivojlantirish, jumladan O'zbekiston va Qirg'izistonning chegaradosh hududlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishdan tomonlar manfaatdor ekanligi e'tirof etildi.

Maslahatlashuvlar doirasida konsullik masalalari va axborot sohasida hamkorlik qilish bo'yicha guruhlarning uchrashuvlari ham o'tkazildi.

Muzokaralarda Qirg'iziston Elchisi Daniyar Sidikov ishtirok etdi.